

YANGI O'ZBEKISTONNING MA'NAVIY MODERNIZATSIYADA "TARBIYA" FANINING O'RNI

Ergashev Abduljalil Abdurasul o'g'li,

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

"Ijtimoiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi

THE ROLE OF THE "UPBRINGING" SUBJECT IN THE SPIRITUAL MODERNIZATION OF NEW UZBEKISTAN

Ergashev Abduljalil Abdurasul ugli,

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

Lecturer, Department of Social Sciences

РОЛЬ ПРЕДМЕТА «ВОСПИТАНИЕ» В ДУХОВНОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Эргашев Абдужалил Абдурасул угли,

Национальный педагогический университет Узбекистана имени

Низами, Преподаватель кафедры общественных наук



abdujalil11@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0001-9994-3214>

Annotatsiya: Mazkur maqolada yangilanayotgan O'zbekistonda "Tarbiya" fanining joriy etilish zarurati ijtimoiy-falsafiy, aksiologik va metodologik jihatdan tahlil qilinadi. Globallashuv sharoitida yosh avlod ongini ma'naviy tahdidlardan himoya qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash masalasi "Tarbiya" fanining o'qitilishi asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: tarbiya, shaxs, qadriyat, ma'naviyat, milliy g'oya, globallashuv, aksiologiya, identitet, barkamol avlod.

Annotation: This article analyzes the necessity of introducing the subject "Upbringing" in the context of the renewing Uzbekistan from socio-philosophical, axiological, and methodological perspectives. In the conditions of globalization, the protection of the younger generation's consciousness from spiritual threats and the harmonization of national and universal values are examined through the framework of teaching the subject "Upbringing."

Key words: upbringing, personality, value, spirituality, national idea, globalization, axiology, identity, harmoniously developed generation.

Аннотация: В данной статье анализируется необходимость введения предмета «Воспитание» в обновляющемся Узбекистане с социально-философской, аксиологической и методологической точек зрения. В условиях глобализации вопросы защиты сознания молодого поколения от духовных угроз, обеспечения гармонии национальных и общечеловеческих ценностей рассматриваются на основе преподавания предмета «Воспитание».

Ключевые слова: воспитание, личность, ценность, духовность, национальная идея, глобализация, аксиология, идентичность, гармонично развитое поколение.

KIRISH (BVEDENIYE / INTRODUCTION).

XXI asr insoniyat tarixida keskin ijtimoiy-madaniy transformatsiyalar davri sifatida namoyon bo'lmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, globallashuv jarayonlarining jadallashuvi va madaniy integratsiyaning kuchayishi inson ongiga bevosita ta'sir

ko'rsatmoqda. Ayniqsa, yoshlar ijtimoiy ongining shakllanish jarayonida mafkuraviy pluralizm, g'oyaviy raqobat va ommaviy madaniyat ta'siri kuchaymoqda.

Bunday sharoitda tarbiya masalasi oddiy pedagogik jarayon emas, balki davlat va jamiyat taraqqiyotining strategik omiliga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida "Tarbiya" fanining joriy etilishi aynan shu zarurat bilan izohlanadi [1]. Tarbiya tushunchasi qadimdan Sharq falsafasining markaziy kategoriyalaridan biri bo'lib kelgan. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Navoiy va boshqa mutafakkirlar shaxs kamolotini jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida talqin qilganlar [2]. Abdulla Avloniy esa tarbiyani millat hayoti bilan tenglashtiradi [3]. Mazkur maqolaning maqsadi – yangilanayotgan O'zbekistonda "Tarbiya" faniga ehtiyojning tarixiy, nazariy va falsafiy asoslarini tizimli ravishda tahlil qilishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Maqolada tarixiylik, tizimli yondashuv, aksiologik tahlil, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili va falsafiy interpretatsiya metodlaridan foydalanildi.

Mustaqillik tufayli yosh avlodni yuksak ma'naviyat va milliy g'oya tamoyillari asosida tarbiyalash masalasiga alohida urg'u berildi. Mustaqillikning ma'no-mohiyatini yosh avlod ongi va qalbiga singdirish, ularni milliy g'oya ruhida tarbiyalashga oid ko'plab ilmiy-uslubiy va ommabop maqolalar, kitoblar chop etildi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoevning qator asarlari, ma'ruza va nutqlarini [4] hamda M.Quronov [5], A.Erkayev [6] kabi olimlarimizning asarlarini alohida qayd etish lozim.

МУНОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). XXI asrda ta'lim-tarbiyaga har qachongidan ham ko'proq ehtiyoj ortib bormoqda. Zero, tarbiya – o'sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot – dunyoqarashni, insoniy e'tiqod, burch va ma'suliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi..

XXI asrda Tarbiya faniga ehtiyoj ortib borishini yana shu bilan izohlash mumkinki, bugun hayot o'zgarish sur'atlari tezlashdi. Bu bir tomondan, turli xalqlar hayot sohalarida imkoniyat doirasida umumiy jihatlarni, qulayliklarni yaratib bersa, ikkinchi tomondan axborot makonini kengaytirdi. Turli maqsad va manfaatlarga yo'naltirilgan har xil g'oya, qarashlar, uni targ'ibot qilish texnologiyalari, ijtimoiy ong va tafakkuriga ta'sir ko'rsatish maqsadida "jozibador"ligini

oshirgan holda samaradorlikka erishish uchun harakat qiladi.

Aynan mana shunday sharoitda Tarbiya faniga, uni zamon talablari asosida o'qitishga ehtiyoj har qachongidan ham kuchliroq seziladi. Bugun Vatanimiz mustaqilligiga tahdid soluvchi, fuqarolarimiz ongi va qalbini egallashga qaratilgan zararli g'oyalarning xavfi yadro maydonidagi xavfdan ham ortiq. Bunday xavfni yetuk tarbiya bilangina bartaraf etish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan soha vakillariga yo'llagan tabrik nutqida ta'kidlaganidek, "taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq" [7].

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 23-avgust kuni bo'lib o'tgan xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videosektor yig'ilishida "Tarbiya" fanini yaratish va o'qitish tashabbusi bilan chiqdi. Davlatimiz rahbarii maktablardagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etib, "Milliy g'oya", "Odobnoma", "Dinlar tarixi", "Vatan tuyg'usi" kabi fanlarni birlashtirgan holda, yagona "Tarbiya" fanini joriy qilish zarurligi qayd etdi [7].

Prezidentimiz ushbu yig'ilishda ta'lim va tarbiyaga doir bir qator yangi g'oya va tashabbuslarni ilgari surdi. Bu o'z vaqtida ilgari surilgan tashabbus edi.

Shu asosda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi 422-son qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun "Tarbiya" fani konsepsiyasi"da ta'kidlanganidek, "bugungi globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular

oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lishdek hayotiy talablarni qo'yimoqda" [1].

NATIJALAR (PE3YJITATYI / RESULTS).

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yigindisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi.

Pedagogik adabiyotlarda "Tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda Tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda Tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniye va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi Tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi [6].

Shaxs – alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy olam. U o'zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Shaxs ijtimoiy-gumanitar fanlarda o'z yo'nalishi, tadqiqot obyekti va maqsadi nuqtai nazaridan turlicha talqin etiladi. U o'ta murakkab, ziddiyatli, qarama-qarshi, o'zini o'zi inkor etadigan mavjudot sifatida, biologik, fiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy, axloqiy va estetik aql idrok, tafakkur obyekti sifatida, hatto, falsafiy va mantiqiy, yashash huquqi va hayot mantig'i jihatidan tadqiqot manbaiga aylanishi mumkin. Shaxs, mohiyatiga ko'ra, madaniylashgan, ong, aql orqali faoliyatini boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgan, ijtimoiy-tarixiy an'ana, turmush tarzi va tajribaga asoslangan muayyan avlodlar vakili. Shaxs fenomeni inson olamining butun murakkabliklarini o'zida mujassam etadi. Uni har tomonlama o'rganish maqsadida turli davrlarda tadqiqot olib borilgan. Ayniqsa, Sharqda u yuksak axloqiy-ma'naviy me'yorlar orqali tushunilgan va oliy xilqat, bebaho

qadriyat deb hisoblangan. Inson shaxs sifatida komillikka intiladi, hayot mazmunini boyitadi, shu asosda kishilik jamiyatining go'zal va farovon bo'lishiga ehtiyoj sezadi [7].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).

Umuman olganda, "Tarbiya" fani Yangi O'zbekistonning ma'naviy modernizatsion taraqqiyot strategiyasida muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Uning mazmunini chuqurlashtirish, metodik bazasini takomillashtirish va ilmiy-nazariy asoslarini boyitish kelgusidagi tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi. Aytish mumkinki, "Tarbiya" fanining izchil va konseptual asosda o'qitilishi barkamol avlodni shakllantirish, milliy identitetni mustahkamlash hamda jamiyatning ma'naviy barqarorligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Xulosa qilish mumkinki, "Tarbiya" fanining joriy etilishi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ma'naviy-falsafiy tayanchidir. Kelgusida "Tarbiya" fanining nazariy asoslarini chuqurlashtirish, uning konseptual modelini yanada takomillashtirish hamda raqamli va interaktiv pedagogik vositalar bilan boyitish ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun "Tarbiya" fani konsepsiyasi// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.07.2020 y., 09/20/422/1033-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Xalq so'zi, 2020-yil, 1-oktabr.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.
5. Erkayev A. Uchinchi renessans – milliy g'oya sifatida // "Yangi O'zbekiston", №172, 2020 yil, 9 sentyabr soni.
6. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.
7. Quronov M. Milliy tarbiya. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006.